

X.DAULETNAZAROV ASARLARIDA FORS-TOJIK TILIDAN O'ZLASHGAN SO'ZLARNING ISHLATILISHI

Arepbaeva Nazigul Kenesbaevna

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli qoraqalpoq shoiri X.Dauletazarov-ning asarlarida qo'llanilgan fors-tojikcha so'zlar va ularning tahlili bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *lug'at, fors-tojik tili, iqtisodiy va madaniy aloqalar, so'z o'zlashishi, adabiy aloqalar.*

Qoraqalpoq tilining lug'at tarkibi o'zining ko'p asrlik tarixida shakllangan va hozirgi kunda ham rivojlanib kelmoqda. Uning lug'at tarkibi bir tomonidan qoraqalpoq tilining o'z ichki qonuniyatlari asosida boyib borsa, ikkinchidan boshqa tillardan so'zlarni o'zlashtirish orqali boyimoqda. Qoraqalpoq xalqi o'zining tarixiy kechmishida hududiy-geografik jihatdan turli hududda, ma'lum bir tarixiy holatlarga bog'liq ravishda boshqa xalqlar bilan turli xil aloqada va munosabatda bo'lib keldi. Bu tarixiy jarayonlar qoraqalpoq tiliga ham o'zining ta'sirini tekkizdi, yaqin joylashgan va o'zaro munosabat o'rnatgan xalqlarning tilidan bizning tilimizga siyosiy, madaniy va iqtisodiy sohalarga dahldor ko'plab so'zlar kirib keldi. X.Dauletazarov asarlarining lug'at tarkibida asl turkiycha so'zlar bilan bir qatorda fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar ham ma'lum o'rinn egallaydi. [1]

Fors tilidan o'zlashgan so'zlar ham umumiyl olib qaraganda, og'zaki va yozma turda tilimizning lug'at tarkibidan o'rinn olgan. Ularning qoraqalpoq tiliga o'zlashtirilishi bevosita va qo'shnii xalqlarning tillari, jumladan, o'zbek, turkman tillari asosida ko'proq amalga oshgan. Qoraqalpoq mumtoz adabiyotida o'sha davrdagi yozma adabiy tillar ta'sirining bo'lishi badiiy so'z ustalari tomonidan o'z asarlari orqali fors tilidan tilimizning lug'at tarkibiga ba'zi leksik birlklarning olib keltirilishiga sababchi bo'ldi. Buning ustiga so'nggi davrlarda qoraqalpoq xalqining tojik xalqi bilan yaqin qo'shni bo'lishi, qoraqalpoq va tojik xalqlari orasidagi iqtisodiy va madaniy munosabatlar tojik va qoraqalpoq tillari o'rtasidagi aloqaning rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Mana bularning barchasi qoraqalpoq tiliga fors-tojikcha so'zlearning kirib kelishiga olib kelmoqda. Ularning asosiy ko'pchiliginin tilimizga oldingi davrlardan-oq o'zlashtirilishi va kundalik turmushda keng qo'llanilishi bunday so'zlarni ham lug'at birliklari darajasiga ko'tardi.[2]

Jumladan: X.Dauletazarovning «Bizdi qiyin halǵa barǵız ba» nomli she'rida ushbu satrlarda forscha so'zlearning qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin:

Dushpanǵa insap ber, dosqa diyanat,

Kewilge jaqsılıq qusın uyalat.

Hesh keshirilip bolmas elge qıyanat,

Qińır iske, qıysiğolǵa bargız ba.

Bu satrlarda **dushpan** so'zi fors tilidan o'zlashtirilgan so'z bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, «Qaraqalpaq táriypi» she'ridda:

Qızǵıstıay qorılar Jer hám Aspanı,

Kón'lı shegarasız, oylamas saqlıq.

Tán almaydı yaratqannan basqani,

Gaybar minezi bar Qaraqalpaqtın'. [5]

Bu satrlarda **yaratqan** so'zi fors tilidan o'zlashtirilgan so'z bo'lib hisoblanadi.

«Taǵdirge tólem hám qaytım kóp boldı» she'ridda:

Táshwishtiń tikenli gúllerin terip,

Kelermen úmittiń izine erip.

Jılıslap hárkimge ornımdı berip,

Esik bette qalǵan paytım kóp boldı.

Bu satrlarda **gul** so'zi fors tilidan o'zlashtirilgan so'z bo'lib hisoblanadi. Yana «Kózime tústi» qosığında:

Boyları naz-jılwa menen bezengen,

Qálbinen ushiǵa sezim elengen.

Kirpikler niginde ishqı gezengen,

Kúydirgi kózleri kózime tústi.

Bu satrlarda **naz** so'zi fors tilidan o'zlashtirilgan so'z bo'lib hisoblanadi.

Shu jumladan, X.Dauletnazarov asarlarida *hár*, *hámme*, *hesh olmoshlar*, *eger*, *hám*, *ya*, *na*, *biy* kabi ko'makchi so'zlar juda ko'p ishlatilgan: Masalan, «Qáyteyin» she'ridda:

Oq jaysız atılmış muhabbat oǵı,

Otsız jalınsız aq kúydirgi shoǵı.

Hár jıllı lebiziń kewlimniń toǵı,

Húsnié qaratpay qoymas qáyteyin.

Fors tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning bir guruhi eron xalqlari bilan iqtisodiy aloqalar natijasida kirib kelgan narsa-buyumlarning atamasini bildirsa, ikkinchi bir guruhi qoraqalpoq tilida mavjud mahalliy turkiy so'zlar bilan birlilikda qo'llanilgan sinonim so'zlar bo'lib hisoblanadi.[4]

Shu jumladan, X.Dauletnazarov asarlarida *hár*, *hámme*, *hesh olmoshlar*, *eger*, *hám*, *ya*, *na*, *biy* kabi ko'makchi so'zlar ko'p ishlatilgan:

Húrden aǵla qáddı-qáwmetiń,

Burıngıday kúlip kiyatsań.

Inam eger edim, hámmesin,

Bul dúnyada nenı unatsań.

X.Dauletnazarov asarlari leksikasida fors tilidan o'zlashtirilgan *biy*, *na* prefiksleri ónimli qollanilǵan. Misali, *námárt*, *biygúna*, *nadan*, *biyopa*, *biyúmit*, *biypárwa* va h.k.z. Uning « Meniń dártli Ámiwdáryamsan'» nomli she'rida mana shunday satrlarni uchratishimiz mumkin:

Talay jol o'zgertip kesip tawlardi,
Tawbege keltirip menmen jawlardi.
Basin'nan dumanday ketpes tawlardi,
Seyiltip, namartler qolin baylarsan'. [5]

Bu satrlarda *námárt* so'zi fors tilidan o'zlashgan so'z bo'lib hisoblanadi. «Dunyani balalarg'a tapsiriw kerek!» nomli she'rida bo'lsa:

Biyparwa, biyumit eresek janlar,
Dunyag'a, zamang'a qol silter nalip.
Jer degen kemeni duktirer jarg'a,
Biyiklikti olardan qoymasa alip.

Bu satrlarda *biyparwa*, *biyumit* so'zlari fors tilidan o'zlashtirilgan so'zlar bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi zamon qoraqalpoq tilining lug'at tarkibidagi fors-tojikcha so'zlar ishlatilish jihatdan ham, miqdor jihatdan ham arab tilidan o'zlashgan so'zlar bilan bir qatorda turadi. Aniqrog'i, fors va arab tillaridan o'zlashgan so'zlarning o'zlashish tartibi va yo'nalishi deyarli bir-biriga yaqin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dáwletov A., Paxratdinov Q. Qaraqalpaq til bilimi. Nukus, Bilim, 2008.
2. Orazimbetov Q. Házirgi qaraqalpaq lirikasında kórkem formalar-díng evolyuciýası hám tipologiyası. – Nukus: «Bilim». 2004.
3. Berdimuratov E. Házirgi qaraqalpaq tili. Leksikologiya. Nukus, Bilim, 1994.
4. Abdinazimov Sh. Sózlerim merwertdur aytılğ'an hár bir. – Nukus: «Bilim», 1997.
5. Paxratdinov Q., Ótemisov A. Qarakalpak tilindegi shıg'ısı arabsha sózler. Nukus, Qaraqalpaqstan, 2015.